



**Marguba ADILOVA,**  
*Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Axborot-resurs markazi boshlig'i*  
E-mail: [adilovamarguba888@gmail.com](mailto:adilovamarguba888@gmail.com)

*PhD, dotsent U.Jabbarov taqrizi asosida*

## THE SOCIO-PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE FAMILY UPBRINGING MODEL AND ITS TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Annotation

The article analyzes the changes occurring in the content, tools, and interpersonal dynamics of the family upbringing model under the influence of the digital environment. The growing impact of digital platforms, social networks, and information technologies on a child's socialization necessitates a scientific and pedagogical re-examination of this issue. The research was conducted using systemic, socio-pedagogical, and comparative approaches, as well as content analysis and pedagogical modeling methods. As a result, parental pedagogical mediation, personal example, trust-based communication, and digital competence have been substantiated as key factors determining the effectiveness of family upbringing. A model for digital family upbringing, grounded in national and universal human values, has been developed, along with recommendations for its practical implementation.

**Key words:** Family upbringing, national upbringing, digital environment, parenting, socialization, pedagogical mediation, media literacy, digital security, family-school cooperation, artificial intelligence.

## СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ МОДЕЛИ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ И ЕЁ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Аннотация

В статье анализируются изменения, происходящие в содержании, средствах и межсубъектных отношениях в рамках модели семейного воспитания под влиянием цифровой среды. Усиление воздействия цифровых платформ, социальных сетей и информационных технологий на социализацию ребёнка обуславливает необходимость научно-педагогического переосмысления данного вопроса. Исследование проведено на основе системного, социально-педагогического и сравнительного подходов с применением методов контент-анализа и педагогического моделирования. В результате педагогическое посредничество родителей, личный пример, доверительное общение и цифровая компетентность обоснованы в качестве основных факторов, определяющих эффективность семейного воспитания. Разработана модель цифрового семейного воспитания, основанная на национальных и общечеловеческих ценностях, а также сформулированы предложения по её внедрению в практику.

**Ключевые слова:** Семейное воспитание, национальное воспитание, цифровая среда, родительство, социализация, педагогическое посредничество, медиаграмотность, цифровая безопасность, сотрудничество семьи и школы, искусственный интеллект.

## OILAVIY TARBIYA MODELI VA UNING RAQAMLI MUHITDA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada raqamli muhit ta'sirida oilaviy tarbiya modelining mazmuni, vositalari va subyektlararo munosabatlarida yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilingan. Bolaning ijtimoiylashuvida raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalari ta'sirining kuchayishi mazkur masalani ilmiy-pedagogik jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruratini belgilaydi. Tadqiqot tizimli, ijtimoiy-pedagogik va qiyosiy yondashuvlar, kontent-tahlil hamda pedagogik modellashirish usullari asosida amalga oshirilgan. Natijada ota-onalarning pedagogik vositachiligi, shaxsiy namunasi, ishonchli muloqot va raqamli kompetentligi oilaviy tarbiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida asoslangan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan raqamli oilaviy tarbiya modeli hamda uni amaliyotga tatbiq etishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Oilaviy tarbiya, milliy tarbiya, raqamli muhit, ota-onalik, ijtimoiylashuv, pedagogik vositachilik, mediasavodxonlik, raqamli xavfsizlik, oila va maktab hamkorligi, sun'iy intellekt.

**Kirish.** Oila bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi, axloqiy tasavvurlari, qadriyatli yo'nalishlari va xulq-atvor meyorlari shakllanadigan asosiy tarbiyaviy muhit hisoblanadi. Bolaning o'zini va boshqalarni anglashi, kattalar va tengdoshlar bilan munosabat o'rnatishi, ijtimoiy mas'uliyatni his etishi hamda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlanishi, avvalo, oiladagi munosabatlar ta'sirida kechadi. Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotga jadal kirib kelishi oilaviy tarbiyaning mazmuni, subyektlari, vositalari va ta'sir mexanizmlarini o'zgartirmoqda. Zamonaviy bola ota-ona, o'qituvchi va tengdoshlari bilan munosabatlar orqali emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, messengerlar,

kompyuter o'yinlari, algoritmik tavsiyalar va sun'iy intellekt tizimlari ta'sirida ham ijtimoiylashmoqda. Natijada oila bola uchun yagona axborot manbai bo'lib qolmayotgan bo'lsa-da, turli manbalardan olingan axborotni baholash, uni axloqiy mezonlar bilan bog'lash va hayotiy tajribaga aylantirishda oilaning pedagogik ahamiyati yanada kuchaymoqda.

O'zbekistonda raqamli muhit qamrovining kengayishi mazkur muammoning milliy pedagogika uchun ham dolzarbligini ko'rsatadi. Milliy statistika qo'mitasining uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, internetdan foydalanuvchi aholi ulushi 2021 yilda 76,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 93,3 foizga, 2025 yilning yanvar-avgust oylarida

esa 94,2 foizga yetgan [12]. Mazkur ko'rsatkich bolalarning alohida yosh guruhlarini ifodalamas-da, oilalarning aksariyati raqamli kommunikatsiya va axborot muhitida yashayotganini tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy pedagogikada oilaviy tarbiya, avvalo, shaxsni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantiruvchi yaxlit jarayon sifatida talqin qilinadi. M. Quronov milliy tarbiyani umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida baholasa, B. Umarov oilaning bola qabul qilayotgan axborotni anglash va undan tegishli xulosa chiqarishida vositachilik vazifasini bajarishini ta'kidlaydi. Xorijiy nazariyalarda L.S. Vigotskiy bolaning rivojlanishini ijtimoiy hamkorlik bilan, U. Bronfenbrenner esa oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri bilan bog'laydi. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslaydi. S. Livingston, E. Xelsper va K. Modetskining tadqiqotlarida raqamli ota-onalik faqat texnik nazorat emas, balki muloqot, birgalikda foydalanish, cheklov va mustaqillik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi pedagogik faoliyat sifatida izohlangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot oilaviy tarbiya modelining raqamli muhitdagi transformatsiyasini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'rganishga qaratildi. Tizimli, ijtimoiy-pedagogik va aksiologik yondashuvlar asosida oilaviy tarbiyaning tarkibiy qismlari, bolaning raqamli ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni tahlil qilindi. Tadqiqotda kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil va sintez hamda pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada ota-onaning shaxsiy namunasi, ishonchli muloqot, raqamli kompetentlik va bolaning o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalariga asoslangan oilaviy tarbiya modeli ishlab chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Oilaviy tarbiya modeli deganda oilada bolani tarbiyalash maqsadlari, qadriyatlari, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar, pedagogik ta'sir usullari, belgilangan talab va meyorlar hamda kutilayotgan tarbiyaviy natijalarning o'zaro bog'langan tizimi tushuniladi. Mazkur model muayyan oilaning ichki xususiyatlariga emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, milliy-madaniy an'analari, axborot muhiti va texnologik taraqqiyot darajasi ta'sirida ham shakllanadi.

Milliy pedagogikada tarbiyani milliy o'ziga xoslikni saqlash bilan cheklangan jarayon emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish an'anasi mavjud. M. Quronovning ta'kidlashicha, "har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir [1]. Mazkur fikr milliy tarbiyani global ijtimoiy-madaniy jarayonlarga qarama-qarshi qo'yish emas, balki milliy o'ziga xoslik va umuminsoniy rivojlanish o'rtasidagi dialektik bog'liqlik asosida tashkil etish lozimligini anglatadi.

M. Quronovning milliy tarbiya konsepsiyasidan kelib chiqqanda, raqamli muhitga moslashish milliy qadriyatlardan voz kechish sifatida emas, balki ularni yangi axborot va kommunikatsiya sharoitida ifodalashning zamonaviy shakli sifatida baholanishi lozim. Bunda bolani global axborot oqimidan sun'iy ravishda ajratish emas, balki unda milliy o'zlikni anglash, axborotni ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida baholash va boshqa madaniyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyatini shakllantirish tarbiyaning muhim natijasiga aylanadi. Demak, raqamli kompetentlik texnik amallarni bajarish mahorati bilangina cheklanmay, bolaning axborotni ijtimoiy, milliy va axloqiy jihatdan anglab qabul qilish qobiliyatini ham qamrab olishi kerak.

B. Umarov oilaviy tarbiya mazmunini milliy va umuminsoniy asoslarning birligi bilan bog'lab, «tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi bilan belgilanadi», deb ta'kidlaydi [2]. Olim yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit oila, oilaviy munosabatlar va tarbiya mazmunini qayta ko'rib chiqish, uni boyitish hamda maqsad va vositalarini yangilashni ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylantirishini ko'rsatadi.

Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tabiatini L.S. Vigotskiyning sotsiomadaniy rivojlanish nazariyasi ham asoslaydi. Olimning fikricha, bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funktsiya «dastlab ijtimoiy, keyin esa individual darajada» namoyon bo'ladi [3]. Boshqacha aytganda, boladagi yuqori psixik funktsiyalar, jumladan, mantiqiy fikrlash, o'zini nazorat qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlari dastlab kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatda shakllanadi, keyinchalik shaxsning ichki mexanizmiga aylanadi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar konsepsiyasiga ko'ra, bola rivojlanishini faqat uning shaxsiy xususiyatlari bilan izohlash mumkin emas. U oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar, mahalla, ommaviy axborot vositalari, davlat siyosati va madaniy qadriyatlardan tashkil topgan ko'p darajali ijtimoiy tizimlar ta'sirida rivojlanadi [4]. Oila bolaga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mikrotizim bo'lsa, oila va maktab munosabatlari mezotizimni, ota-onaning mehnat sharoiti, axborot siyosati va raqamli platformalar faoliyati esa bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ekzotizimni tashkil etadi.

Raqamli texnologiyalar ushbu tizimlar o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni o'zgartirdi. Ilgari oila makonidan tashqarida bo'lgan shaxslar, guruhlar va madaniy namunalari endi smartfon yoki kompyuter orqali bolaning kundalik hayotiga bevosita kirib kelmoqda. Blogger, kompyuter o'yini qahramoni yoki ijtimoiy tarmoqdagi onlayn jamaiyat bola uchun xulq-atvor namunasi va norasmiy tarbiya subyektiga aylanishi mumkin. Shuning uchun oilaviy tarbiyani faqat oila ichidagi munosabatlar bilan cheklangan jarayon sifatida o'rganish yetarli emas.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, inson xulq-atvorining muhim qismi boshqalarning harakatlarini kuzatish va modellashtirish orqali o'zlashtiriladi [5]. Bola ota-ona tomonidan bildirilgan talablarnigina emas, balki ularning kundalik xatti-harakatlarini ham o'zlashtiradi.

Raqamli muhitda oilaviy tarbiyaning transformatsiyalashuvi, eng avvalo, axborot va tarbiyaviy ta'sir manbalarining ko'payishida namoyon bo'ladi. An'anaviy oilada ota-ona, katta avlod va o'qituvchi bola uchun asosiy bilim va qadriyat manbalari hisoblangan. Hozirgi sharoitda esa raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik tavsiyalar bolaning qiziqishlari, ijtimoiy tasavvurlari va iste'mol odatlariga muntazam ta'sir ko'rsatmoqda.

Algoritmalar foydalanuvchining avvalgi qidiruvlari, ko'rilgan materiallari va bildirgan munosabatlari asosida yangi kontentni tanlab beradi. Bu jarayon bolaning axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, uni muayyan nuqtai nazarlar doirasida qoldirishi, tijorat yoki mafkuraviy manipulyatsiya ta'siriga tushirishi mumkin. Shu bois raqamli tarbiyaning vazifasi har bir axborotni oldindan taqiqlash emas, balki bolaga tavsiya qilingan kontentning maqsadi, manbasi va ehtimoliy ta'sirini anglashni o'rgatishdan iborat.

B. Umarov oilaning kommunikativ vazifasini tahlil qilib, yoshlarning ko'rgan, eshitgan va o'qigan axborotlarini o'zlashtirishi hamda ulardan xulosa chiqarishida «oilalar ham vositachilik vazifasini bajarishi lozim»ligini ta'kidlaydi [2]. Mazkur fikr raqamli davr uchun prinsipial ahamiyatga ega. Chunki ota-ona barcha raqamli kontentni to'liq nazorat qila olmasligi mumkin, ammo bolaning axborotni anglashi, unga munosabat bildirishi va tanqidiy xulosa chiqarishiga pedagogik vositachilik qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan raqamli ota-onalikni texnik nazorat vositalaridan foydalanish bilan tenglashtirish to'g'ri emas. Raqamli ota-onalik bolaning onlayn tajribasini tushunish, u bilan muntazam muloqot qilish, xavflarni izohlash, ijobiy imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirish va yoshiga mos mustaqillik berishni o'z ichiga olgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatdir.

S. Livingston va E. Xelsper ota-onalarning faol vositachilik, birgalikda foydalanish, cheklov va monitoring kabi strategiyalarini tahlil qiladilar [6]. Mazkur strategiyalar bir-birini mutlaqo inkor qilmaydi. Biroq ularning nisbati bolaning yoshi, shaxsiy yetukligi, raqamli ko'nikmalari va uchrashi mumkin bo'lgan xavflardan kelib chiqib belgilanishi lozim. Faqat taqiqlarga asoslangan tarbiya qisqa muddatda ayrim xavflarni kamaytirishi mumkin, ammo u bolada mustaqil qaror qabul qilish va xavfni anglash qobiliyatini yetarli darajada shakllantirmaydi.

UNICEFning 2025 yilgi tahlilida ota-onalari internet faoliyatini qattiq cheklaydigan bolalarning raqamli ko'nikmalari pastroq bo'lishi aniqlangan. Ushbu bog'liqlik tahlil o'tkazish imkoni bo'lgan 22 mamlakatning 21 tasida kuzatilgan [8]. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanuvchi bolalar maxfiylik sozlamalarini o'zgartirishni bilish ehtimoli ikki baravargacha yuqori ekani ko'rsatilgan.

Mazkur natijalar bolalar faoliyatini cheklamaslik kerak, degan xulosani anglatmaydi. Aksincha, tashqi nazoratning maqsadi bolada ichki o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim. Maktabgacha va kichik maktab yoshida texnik filtrlar, kontentni oldindan tanlash va vaqtga oid cheklovlar ko'proq talab etilsa, o'smirlar davrida ochiq muloqot, maslahat, ishonch va mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya ota-ona va bola o'rtasidagi bilimlar nisbatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. UNICEFning 2026 yilda o'nta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqoti bolalar sun'iy intellekt tizimlaridan ota-ona yoki vasiylariga nisbatan uch baravardan ko'proq foydalanishini ko'rsatgan. Tadqiqotda sun'iy intellektidan foydalangan bolalarning o'rtacha 60 foizi undan uy vazifalarini bajarishda, 47 foizi axborot izlashda foydalangan [9]. Bu oila ichida yangi avlodlararo raqamli tafovut paydo bo'layotganini ko'rsatadi.

UNESCO texnologiya o'qitish va o'rganish asoslanadigan insoniy munosabatlarni qo'llab-quvvatlashi, ammo hech qachon ularning o'rnini egallamasligi kerakligini ta'kidlaydi [10]. Ushbu qoida oilaviy tarbiya uchun ham to'liq amal qiladi. Texnologiya ota-ona va bolaning birgalikda o'rganishi, oilaviy tarixni raqamlashtirishi, ijodiy loyihalarni amalga oshirishi va uzoqdagi yaqinlar bilan aloqa qilishiga yordam berishi mumkin. Biroq u yuzma-yuz muloqot, emotsional yaqinlik, birgalikda mehnat qilish va oilaviy hayotda bevosita ishtirok etish o'rnini bosmasligi kerak.

Raqamli muhit kiberbulling, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor qilinishi, firibgarlik, zararli va yoshga nomuvofiq kontent, muammoli o'yin xulqi, uyqu rejimining buzilishi va yuzma-yuz munosabatlarning qisqarishi kabi xavflarni ham keltirib chiqaradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Yevropa, Markaziy Osiyo va Kanadadagi o'smirlar ishtirokida o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra, muammoli ijtimoiy tarmoq foydalanishi 2018 yildagi 7 foizdan 2022 yilda 11 foizga oshgan. Qizlar orasida ushbu ko'rsatkich 13 foiz, o'g'il bolalarda 9 foizni tashkil etgan. O'smirlarning 36 foizi do'stlari bilan deyarli doimiy onlayn aloqada bo'lgan, 34 foizi har kuni raqamli o'yin o'ynagan, 12 foizida esa muammoli o'yin xulqi xavfi aniqlangan [11].

Biroq ushbu ma'lumotlar har qanday raqamli faoliyat salbiy oqibatga olib keladi, degan xulosani asoslamaydi. Muammo ekranning mavjudligida emas, balki raqamli faoliyatning maqsadi, mazmuni, davomiyligi va bolaning kundalik hayotidagi boshqa faoliyatlar bilan nisbatidadir. Shu bois ota-onalar bolaning faqat ekran oldida o'tkazgan vaqtini emas, balki u qanday kontentdan foydalanayotgani, kimlar bilan muloqot qilayotgani, raqamli faoliyatdan keyin uning emotsional holati qanday o'zgarayotgani hamda internet uyqu, ta'lim, jismoniy faollik va oilaviy muloqotga qanday ta'sir ko'rsatayotganini baholashi lozim. Raqamli tarbiya «necha soat?» degan savol bilan cheklanib qolmay, «qanday maqsadda?», «qanday mazmunda?» va «qanday natija bilan?» degan pedagogik savollarga ham javob berishi kerak.

O'tkazilgan nazariy va statistik tahlillar asosida raqamli muhitga mos qadriyatli-hamkorlikka asoslangan oilaviy tarbiya modelini taklif etish mumkin. Ushbu model milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, bolaning subyektivligini tan olish, ota-onaning pedagogik vositachiligi hamda raqamli xavfsizlik talablarini o'zaro birlashtiradi. Modelning qadriyatga asoslangan maqsadli komponentida bolaning qadr-qimmatini, manfaati, xavfsizligi va bosqichma-bosqich mustaqillashuvi asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Kommunikativ komponent ota-ona va bola o'rtasida raqamli hayotga oid ochiq, muntazam va jazolashdan xoli muloqotni nazarda tutadi. Bola kiberbulling, nomaqbul kontent yoki firibgarlik holatiga duch kelganda qurilmasi olib qo'yilishidan qo'rqmasdan ota-onaga murojaat qila olishi kerak. Ishonchga asoslangan munosabat bolani xavf haqida o'z vaqtida xabar berishga va kattalar yordamini qabul qilishga tayyorlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari raqamli muhit oilaviy tarbiyaning ahamiyatini kamaytirmasdan, uning mazmuni, usullari va subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirayotganini ko'rsatdi. Oila raqamli platformalar, ta'lim muassasalari va axborot manbalari bilan o'zaro aloqadagi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizimga aylanmoqda. Bunda qat'iy nazorat va taqiqlardan ko'ra, pedagogik vositachilik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va bolaning o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan pedagoglar va ota-onalar uchun raqamli oilaviy tarbiya bo'yicha maxsus o'quv modulini joriy etish, oilalarda qurilmalardan foydalanish, onlayn muloqot va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarini belgilovchi «oilaviy raqamli kelishuv»ni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shuningdek, maktab, oila va mutaxassislar o'rtasida raqamli tarbiya bo'yicha doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda bolalarning raqamli hayoti va ota-onalarning pedagogik vositachiligini o'rganuvchi milliy monitoring tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq.

#### ADABIYOTLAR

1. Quronov M. Milliy tarbiya. — Toshkent: Ma'naviyat, 2007. — B.13.// <https://lib.afu.uz/index.php?newsid=186>
2. Umarov B. Oilaviy tarbiya saboqlari: oilada farzandlar tarbiyasiga oid psixologik chizgilar. — Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2019. — 52 b.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. — 330 p.
5. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. — 247 p.
6. Livingstone S., Helsper E.J. Parental Mediation of Children's Internet Use // Journal of Broadcasting & Electronic Media. — 2008. — Vol. 52, No. 4. — P. 581–599. — DOI: 10.1080/08838150802437396.
7. Modecki K.L., Goldberg R.E., Wisniewski P., Orben A. What Is Digital Parenting? A Systematic Review of Past Measurement and Blueprint for the Future // Perspectives on Psychological Science. — 2022. — Vol. 17, No. 6. — P. 1673–1691.
8. UNICEF Office of Research — Innocenti. Childhood in a Digital World. — Florence: UNICEF Innocenti, 2025.
9. UNICEF Office of Strategy and Evidence — Innocenti. Snapshot of AI Usage and Concerns Among Children and Parents. — Florence: UNICEF Innocenti, 2026.
10. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education — A Tool on Whose Terms? — Paris: UNESCO, 2023.
11. World Health Organization Regional Office for Europe. A Focus on Adolescent Social Media Use and Gaming in Europe, Central Asia and Canada. — Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2024.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston aholisining internetdan foydalanishiga oid uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari. — Toshkent, 2025.